

## QASHQADARYO VILOYATI LANDSHAFTNING O`ZIGA XOSLIGI HAMDA UNING XARITADA NAMOYON BO`LISHI

*Yahshiboyev Barot Abdulhaqovich*  
*IIV Qashqadaryo akademik litseyi*  
*Umumta'lim fanlar kafedrası boshlig'i*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada landshaft ta'limotining shakllanishi va uni ekologik muammolarni bartaraf etishdagi roli va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati landshaftlarini tavsiflash va xaritaga olish masalalari haqida fikr, mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Landshaft ta'limoti, landshaft turlari, geologik jarayonlar, ekologik muammolar.

### KIRISH

Geografiyaga oid adabiyotlardan ma'lumki, landshaft nemischa so'z bo'lib, ("land" – "yer" va "shaft" – "manzara" degan ma'noni bildiradi [2]. Garchi landshaft ta'limotining paydo bo'lish tarixi nemis olimlariga borib taqalsada, landshaft konsepsiyasi hamda nazariyasi umuman landshaftshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishida rus olimlarning ulkan mehnatlarini alohida qayd etish lozim. Landshaft haqidagi g'oya va ta'limotni vujudga kelishida V.V.Dokuchaev va uning ilmiymaktabi namoyondalarining xizmatlari katta bo'lgan. O'zbekistonda ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, landshaftshunoslik borasida ulkan tajribaga ega Sh.S.Zokirov va X.R.Toshovlarning [3] ta'kidlashlariga ko'ra, mamlakatimizda landshaftshunoslikka oid dastlabki ilmiy izlanishlar o'tgan XX asrning 50-yillari oxirida L.N.Babushkin va N.A.Kogay tomonidan O'zbekiston hududini qishloq xo'jaligi maqsadlarida tabiiy geografik rayonlashtirish mavzuida amalga oshirilgan tadqiqotlari bilan boshlangan. L.N.Babushkin va N.A.Kogaydan so'ng mamlakatimizda landshaftshunoslik ta'limoti asosidagi ilmiy faoliyatni rivojlantirish bilan L.Alibekov, P.G'ulomov, A.Rafikov, A.Abulqosimov, M.Umarov, Sh.S.Zokirov, X.R.Toshov va boshqalar shug'ullanganlar va bu boradagi izlanishlar hozirda ham jadal davom ettirilib kelinmoqda [1-4].


### ASOSIY QISM

Markaziy Osiyo mintaqasi geologik jihatdan uzoq o'tmishlarda murakkab rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirganligi uchun o'ziga xos turli landshaftlardan tarkib topgan [2]. Xususan, resublikamizning janubiy-g'arbida joylashgan Qashqadaryo viloyati landshaftlarning strukturali-dinamik holati va qiyofasining o'zgachaligi ayrim geograflar tomonidan e'tirof etilgan. Qashqadaryo landshaftlarining o'ziga xosligi va turli-tumanligining asosiy sababi geologik davrlarda

geologik, geomorfologik hodisalar va inson faoliyatining ta'siri hisoblanadi. Qashqadaryo zamini tekislik, tog' oldi va tog'li hududlaridan iborat bo'lib, ularda respublikaning boshqa yerlarida uchramaydigan Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston va boshqa sharq mamlakatlariga xos bo'lgan ayrim landshaft turlari tarqalgan [4]. Viloyatning landshaft strukturasi murakkab bo'lganligi sababli bu yerdagi tabiiy geografik sharoitlar ham shunga monand xilma-xillik kasb etgan. Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqi tog' va tog' oldi, sharq va shimoli-g'arbiy qismlari tekisliklardan (asosan cho'llar dan) tashkil topgan.

Qashqadaryo viloyatining tog'li mintaqalarida nival, o'tloqi dasht, o'rmon landshaftlari keng tarqalgan bo'lsa, tog' oldi hududlarida lyosli va chala cho'li landshaftlar uchraydi shuningdek, tekislik qismlari asosan cho'l (gipsli, gilli, sho'rxoksimon va boshqa.) landshaftdani bilan qoplangan. Viloyatda tarqalgan landshaftlarni tasvirlash va ular haqida kengroq tasavvur hosil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tasarrufidagi "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi 2016-yili nashr etilgan Qashqadaryo viloyati o'lkashunoslik atlasidagi ayrim ma'lumotlaridan foydalangan holda, hududning aerokosmik suratlarini deshifrovka qilish orqali Qashqadaryo viloyatining landshaft xaritasi tuzildi. Zero, V.G.Isachenko ta'kidlaganidek [1] landshaftlardagi o'zgarishlarni va yuzaga kelgan muammolarni yaqqol namoyon etishda, ularni tahlil qilish va ilmiy xulosalarni chiqarishda kartografik asarlar (xarita, atlas va boshq.) ustuvor hisoblanadi.

1-rasm. Qashqadaryo viloyati landshaft xaritasi



## **XULOSA VA MUNOZARA**

Jahon miqyosida kechayotgan hozirgi globallashuv va ilmiy- texnik taraqqiyot o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan va inson manfaatlari o'z ifodasini topib borayotgan davrda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar har qachongidan ham keskinlashgan, hamda buning oqibatida landshaftlarda turli salbiy o'zgarishlar yuz berib, ulardagi ekologik muammolar tobora jiddiy tus olayotgani hech kimga sir emas. Mazkur ekologik muammolar xususan, tabiat resurslarning qashshoqlanishi va landshaftlarida kechayotgan salbiy o'zgarishlar respublikamiz uchun ham halokatli oqibatlarni keltirib chiqarishi va ekologik tanazzulga olib kelishi mumkin. Mavjud salbiy jarayonlar tarqalishini inobatga olsak, muammoga landshaft ta'limoti yuzasidan yondashish hamda vaziyatni barqarorlashtirish yo'lida ilmiy yechimlarni izlash, ularni amalda qo'llash, bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifasi hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari - Toshkent: "Muharrir", 2013 y. 106-110 b.
2. Zokirov SH.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. 2016 y. 200 b.
3. Murodova D.S. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy geografiyasi – Qarshi: 2017 y. 4-18 b.
4. Qashqadaryo viloyati o'lkashunoslik atlas. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. Toshkent, 2016 y